



**Kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur rivojlanishining
o'zini-o'zi anglash jarayonlariga ta'siri**

Rahimova Sabohat Bahodir qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur rivojlanishi va uning o'zini-o'zi anglash jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tafakkurning rivojlanish darajasi bolaning o'ziga bo'lgan bahosi, shaxsiy identifikatsiyasi va reflektiv tafakkuri bilan qanday bog'liqligi tajriba asosida ochib berilgan. Maqolada Veksler testlari, "To'rtinchisi ortiqcha" metodi va Demboning o'z-o'zini baholash texnikasi asosida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: tafakkur, o'zini anglash, kichik maktab yoshi, refleksiya, shaxsiy identifikatsiya, psixodagnostika.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние развития мышления у младших школьников на процессы самосознания. На основе психологических теорий и эмпирических данных анализируется взаимосвязь между уровнем развития мышления, самооценкой и личностной идентификацией ребенка. Используются методы теста Векслера, «Четвертый лишний» и техника самооценки Дембо-Рубинштейн.



Ключевые слова: мышление, самосознание, младший школьный возраст, рефлексия, личностная идентификация, психодиагностика.

Abstract: This article examines the impact of thinking development in primary school children on the process of self-awareness. Based on psychological theory and empirical data, the interrelation between the level of thinking development, self-esteem, and personal identity in children is analyzed. The research is based on the WISC test, the “Fourth is Odd” method, and the Dembo self-assessment technique.

Keywords: thinking, self-awareness, primary school age, reflection, personal identification, psychodiagnostics.

Zamonaviy psixologiyada tafakkur va o‘zini-o‘zi anglash tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa kichik maktab yoshida bu jarayonlar faol shakllanadi. Kognitiv rivojlanish, bolalarning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida o‘z "Men" obrazini shakllantirishiga asos bo‘ladi (Vygotsky, 1982).

Tafakkur va o‘zini anglashning o‘zaro bog‘liqligini tushunish uchun avvalo bu tushunchalarning ilmiy asoslarini ko‘rib chiqish zarur. Tafakkur insonning atrof-muhitdagi hodisa va jarayonlarni bilish, tushunish, tahlil qilish hamda ularni qayta ishlash orqali yangi bilimlar hosil qilish qobiliyatidir. Vygotskiy (1982) fikricha, tafakkur va til taraqqiyoti insonning yuqori psixik funksiyalarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Piaget nazariyasiga ko‘ra, 7–11 yosh oralig‘i aniq operatsiyalar bosqichi bo‘lib, unda bola mantiqiy fikrlashni o‘rganadi va o‘z fikrlarini asoslay oladi.

O‘zini anglash esa shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘z imkoniyatlarini anglash, shaxsiy fazilatlarini baholash va o‘zligini identifikatsiya qilish jarayonidir. Bu jarayonlar



refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga xoslik kabi komponentlardan iborat. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida aynan maktab davri bola shaxsining mehnatga munosabati va kompetentligini anglash bosqichi sifatida ta’riflanadi.

Ushbu tadqiqotda kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkur rivojlanishi va uning o‘zini anglash jarayonlariga ta’sirini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotda quyidagi metodikalar qo‘llanildi:

- ❖ Vekslerning bolalar uchun intellektual testlarining qisqargan varianti;
- ❖ Belopolskayaning “To‘rtinchisi ortiqcha” testi;
- ❖ Dembo-Rubinshteynning o‘z-o‘zini baholash metodikasi.

Tadqiqot Toshkent shahridagi 2 ta umumta’lim maktabining 2–4-sinf o‘quvchilari orasida olib borildi. Har bir sinfdan 20 nafardan bola tanlab olindi.

Olingan natijalarga ko‘ra, tafakkur darajasi yuqori bo‘lgan bolalarda o‘z-o‘zini baholash darajasi ham muvofiq yuqori bo‘lgan. Shuningdek, refleksiv tafakkur komponentlari (fikir yuritish, qiyoslash, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash) shaxsiy identifikatsiya ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Masalan, Veksler testidan yuqori ball olgan bolalar Demboning o‘z-o‘zini baholash chizig‘ida o‘zini real va idealdan yaqin pozitsiyada joylashtirganlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tafakkurning rivojlanish darajasi bolaning o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu bog‘liqlik bolaning o‘z imkoniyatlarini real baholashiga, ijtimoiy muhitdagi roli va ahamiyatini tushunishiga yordam beradi. Vygotskiy va Piaget nazariyalari asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, kognitiv rivojlanish bosqichlari shaxsiy ongning chuqurlashuviga olib keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda tafakkurning rivojlanishi ularning o‘zini anglash, shaxsiy identifikatsiya va refleksiv tafakkur darajalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.



Psixodiagnostik metodikalar orqali olingan natijalar ushbu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot maktab psixologlari, o‘qituvchilar va otalarga bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishidagi murakkab omillarni chuqurroq tushunishda ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotsky L.S. (1982). **Collected Works**. Moscow: Pedagogika.
2. Piaget J. (1977). **The Development of Thought: Equilibration of Cognitive Structures**.
3. Belopolskaya N.L. (2005). *Psikhodiagnostika mysleniya*. SPb.: Rech.
4. Dembo T.V., Rubinshteyn S.Ya. (1990). *Samootsenka lichnosti*. M.: Pedagogika.
5. Erikson E.H. (1963). **Childhood and Society**. Norton.